

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi 229

O'.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi 302

M.G'anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish 311

SAMARQAND VOHASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI
ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОМ ОАЗИСЕ
ISSUES OF PILGRIMAGE TOURISM DEVELOPMENT IN SAMARKAND OASIS

Yalgashev Bunyod Maxmudovich¹

¹Yalgashev Bunyod Maxmudovich

– O‘zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Voha aholisi orasidagi muqaddas qadamjolarга oid turli rivoyatlar, afsonalarni o‘rgangan holda ular haqida tahliliy ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, aholi ijtimoiy hayotida din omilining ahamiyati yuqoriligini hisobga olgan holda, diniy maskanlarda ziyorat turizmini keng rivojlantirish zarurligi dalillangan.

Аннотация

В статье анализируются вопросы развития паломнического туризма в Самаркандском оазисе с научной и практической точки зрения. Аналитические сведения о святых местах у жителей оазиса представлены после изучения различных преданий. Также, учитывая высокую значимость религиозного фактора в социальной жизни населения, доказана необходимость широкого развития паломнического туризма по культовым местам.

Abstract

The article analyzes the development of pilgrimage tourism in the Samarkand oasis from a scientific and practical point of view. Analytical information about the holy places among the inhabitants of the oasis is presented after studying various legends and legends. Also, given the high importance of the religious factor in the social life of the population, the need for a wide development of pilgrimage tourism in places of worship has been proved.

Kalit so‘zlar: ziyorat, ziyorat turizmi, Chokardiza, Xo‘ja Doniyor, Xo‘ja Ahror Valiy, Maxdumi A‘zam, G‘avsul A‘zam, Daxbediya, Qodiriya.

Ключевые слова: паломничество, паломнический туризм, Чокардиза, Ходжа Даниер, Ходжа Ахрор Вали, Махдуми Аъзам, Гавсул Аъзам, Дахбедия, Кадирья.

Key words: pilgrimage, pilgrimage tourism, Chokardiza, Khoja Danier, Khoja Akhror Vali, Makhdumi Azam, Gavsul Azam, Dahbediya, Qadiriya.

KIRISH

Dunyodagi ko‘plab xalqlar singari o‘zbek xalqining ma‘naviy qadriyatlari, madaniy merosi asrlar mobaynida Sharq sivilizatsiyasini madaniy qiymatini oshib borishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud g‘oyat xilma-xil diniy e‘tiqodlar, dinlar, madaniyatlar birlashgan mintaqa hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston nafaqat Sharq, balki umuminsoniyat sivilizatsiya beshiklaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridan turib ta‘kidlaganidek, «Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini» alohida qayd etish zarur. [1]

Bugungi kunda dunyoda turizm sohasiga e‘tibor kuchayotgan bir vaqtda, aynan, O‘zbekistonning eng qadimiy va mashhur vohasi hisoblangan Samarqand viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat hisoblanadi. Chunki, ona zaminimizda butun dunyoga ma‘lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma‘naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart” [2].

Shu bilan bir qatorda, ziyorat turizmini Samarqand vohasida yanada rivojlantirish, vohadagi muqaddas qadamjolar va maskanlardan samarali foydalanish, o‘zining boy tarixi va ahamiyatiga ega bo‘lgan ziyoratgohlar bilan mahalliy va xorijiy turistlarni keng tanishtirish, ayniqsa, bu joylarni voha etnomadaniyatidai o‘rnini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2017-yil 30-iyundagi “2017-2019-yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 450-son Qarori ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, har bir davlat uchun turizmni rivojlantirish muhim masalalardan hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda jahon miqyosida har yili 200 milliondan ortiq insonlar aynan ziyorat qilish maqsadida dunyodagi turli ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar borib, sayohatlarni amalga oshirmoqdalar.

Ziyorat va turizm tushunchalari bugungi kunda insonlar hayotida ahamiyati yuqori sanaladi. Ziyorat va turizm tushunchalarini o'zaro bog'liqligini o'rgangan olim K.Mazin ming yillik tarixga ega bo'lgan ziyoratning turizmdan ancha qadimiy ekanligini aytib o'tadi. Muqaddas joylarni ziyorat qilish va ularga sajda qilish maqsadida sayohat qadim zamonlardan beri insoniyat hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib kelganligi va zamonaviy turizmning o'ziga xos "prototipi" bo'lganiga qaramay, ular o'rtasidagi asosiy sezilarli farq bu inson hayotining turli jabhalarini faollashtirishda namoyon bo'ladi. K.Mazinning fikricha, "ziyosat diniy hayotning, turizm esa madaniy hayotning namoyonidir". [3, -C.9.]

Aslini olganda, insonlarning ziyorat turizmini amalga oshirishdan ma'lum maqsadlari bo'ladi. Ularni muqaddas qadamjolar va diniy maskanlarga sayohat qilishga qandaydir ichki ehtiyoj majbur etadi. Bu borada Ye.Pecheritsaning fikrlariga qo'shilish mumkin. Muallif, bunda har qanday sayohatning maqsadini motivga bog'laydi. Sayohat qiladigan insonning asosiy motivlaridan biri bu diniy xarakterda bo'ladi. Insonlar o'zining diniy qarashlarini amalda ifoda etish uchun diniy qadamjolarini ziyorat qiladi va bu o'z navbatida ziyorat turizmini rivojlanishiga olib keladi. [4, -C.572.] Demak, insonlarning diniy e'tiqodi va o'zlari ishongan qarashlari ularni ziyoratgohlarga sayohat qilishga hamda ichki hissiyotlarini qondirishga undaydi.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Samarqand vohasi qadimdan dunyoda mashhur maskan bo'lib, barchaning e'tiborini va qiziqishini o'ziga tortib kelgan. Ayniqsa, vohaning geografik tabiati, qadimiy tarixi, qadriyatlarini, moddiy va ma'naviy boyliklari, muqaddas qadamjolari kishilarning hayratga qoldirgan. Tarixchi D.Alimovning yozishicha, "qadimgi davr tarixchilari, geograflari, sayyohlari, savdogarlari va din targ'ibotchilari – missionerlari Samarqandga "Yer yuzining sayqali", "Sharq Rimi", "Sharqning jannati", "Sug'dning mashhur bozori", "Musulmon olamining qimmatbaho gavhari", "Yer yuzining porloq nuqtasi" singari ta'sirli, jozibali va lo'nda ifodalangan nomlar, turli davrlarda shaharga tashrif buyurgan zamondoshlari tomonidan ta'rif etilgan" [5, -B.3.].

Samarqand tarixiga nazar tashlansa, qadimgi Afrosiyob shahar qoldiqlari, undagi shahar madaniyati, ilk davlatchilik asoslari, bugungi kun ilm-fani uchun asosiy moddiy manba sifatida qaraladi. Keyinchalik, vohaga islom dinining kirib kelishi natijasida shahar madaniyatida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, o'ziga xos qurilish uslublari asosidagi me'moriy obidalar, ziyoratgohlar, aholi o'rtasidagi islom dini ta'sirida o'zgarishga uchragan va o'z tartib-taomillarini saqlab qolgan urf-odat hamda marosimlarning ahamiyati oshib bordi.

Temuriylar davrida Samarqand poytaxt shahar maqomida o'zining yanada yuksak darajasiga ko'tarildi. Amir Temur tomonidan shaharni ilm-fan, madaniyat va savdo-sotiq markazi sifatida mashhur qilish maqsadida ko'plab amaliy harakatlar olib borildi. Aynan shu davrda Samarqand dovruqi butun dunyoga tarqalib, savdo-sotiq ishlari keng rivojlangan. Aynan Amir Temurning shaxsan o'zi Samarqandni dunyoning eng dongdor shaharga aylantirishga harakat qilgan. Bu haqida o'sha davr tarixchilaridan Sharafiddini Ali Yazdiy ham, ispaniyalik sayyoh Ruy Gonsales de Klavixo ham o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Masalan Klavixo shunday yozadi: "Samarqand shahrida Hitoy, Hindiston va Tatariston va boshqa joylardan olib kelingan va Samarqand hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan savdo mollari sotilgan". [6, -B.316.]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'kidlash joizki, Samarqandning o'ziga tortar va e'tiborga molik qadamjolari va ziyoratgohlarining aksariyat qismi XV-XVI asrlarda bunyod etilgan yoki qayta tiklanib, ularning mavqeyi ko'tarilgan. Bu esa, bugungi kunda mazkur ziyoratgoh va obidalarga tashrif buyuruvchilar uchun ulkan moddiy muzey vazifasini bajarmoqda. "Samarqand aziz, muqaddas, avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo'nim topgan joydir" – deb ta'kidlaydi M.Usmanov. Uning fikricha, «o'zbek xalqi din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarini ziyorat etish, o'tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi va katta ma'naviy energiya olishadi. Shuningdek, Samarqandda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun Shohi-Zinda, Hazrati Hizr, Ruhobod, Amir Temur, Imom Buxoriy, Moturdiy, Hazrati Dovud, Chorchinor va boshqa ko'plab ziyoratgoh va qadamjoylar mavjud bo'lib, ular ziyorat turizmini yuksaltirishga katta imkoniyat yaratadi» [7, -B.94.] – deb yozadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Samarqand vohasining deyarli barcha tumanlarida muqaddas qadamjolar, maskanlar va ziyoratgohlar mavjud. E'tiborli jihati, so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy turistlarning aksariyat qismi Samarqand shahridagi Temuriylar davrida qurilgan me'moriy obidalarga, Payariq tumanidagi Imom al Buxoriy ziyoratgohiga tashriflarini kuzatish mumkin. Biroq, voha hududidagi shunday ziyoratgohlar borki, ularning tarixi va ahamiyati juda yuqori sanalib, qurilishi bo'yicha afsonalari mahalliy aholi orasida mashhur hisoblanadi. Bunday ziyoratgohlarga, misol sifatida Samarqand shahridagi Ruhobod (X asr), Imom Moturdiy, Xo'ja Doniyor, Xo'ja Abdu Dorun ziyoratgohlarini, Samarqand tumanidagi Xo'ja Abdu Berun, Xo'ja Ahror Valiy majmualarini, Oqdaryo tumanidagi Maxdumi A'zam maskanini, nurobod tumanidagi Hazrati Dovud qadamjosini, Urgut tumanidagi G'avsul A'zam va Chor Chinor ziyorat maskanlarini keltirish mumkin.

Chokardiza qabristoni. Chokardiza qabristoni X asrda qurilgan. Qabriston o'rnida harbiy qal'a mavjud bo'lgan, shuning uchun mahalliy aholi uni Chokardiza, ya'ni "chokar" – "armiya", "diza" – "qal'a" deb nomlagan. Unda Imom Moturdiy qabridan tashqari, Abu Qosim Samarqandiy va Burhoniddin Marg'inoniy qabrlari ham mavjud. Islom olamida Chokardiza qabristoning darajasi Makkadagi Muallloh va Madinadagi Boqiyya qabristoni bilan teng degan ta'rifni berishadi. Chokardiza qabristoni Registonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, qurilgan vaqtda mahalliy aholi orasida mashhur ziyoratgohlardan biri sanalgan. Manbalarda keltirilishicha, ushbu qabristonda 3 mingdan ortiq buyuk ulamolar dafn etilgan.

Shuningdek, qabristonda Sohibqiron Amir Temur tomonidan Hirot va Mashhaddan keltirilgan sayyidlar gumbazli daxmasi joylashgan. Majmuaning shimol tomonidagi supada IX-XVIII asrlarga mansub qabrtoshlar mavjud. Maqbaraning janubiy-g'arbiy tomonida, bog' ichida mashhur fiqhshunos, musulmon qonunchiligining gultoji – "Al-Hidoya" asari muallifi Burhoniddin Marg'inoniyning qabri joylashgan. Mazkur ziyoratgohning ahamiyati bugungi kunda yuqori bo'lib, islom diniga e'tiqod qiluvchi mahalliy va xorijiy sayyoxlarning e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Xo'ja Doniyor ziyoratgohi. Xo'ja Doniyor maqbarasi Samarqand vohasidagi eng aziz va mo'tabar mashhur maskan hisoblanadi. Bu maqbara uch din birlashmasida: islom, xristian, yahudiylik e'tiqodchilari uchun birdek qadrli hisoblanadi. Chunki, Xo'ja Doniyor avliyo sifatida ta'rif etilib, uchta dinning ilohiy kitoblarida Doniyor, Daniil va Daniel nomlari bilan mashhurdir.

Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur o'zining (1397-1404 yillar) Kichik Osiyoga yetti yillik yurishi vaqtida Suza shahrini (Eron) zabt eta olmaydi. Buning sababini izlaganda bu shaharda avliyo Doniyorning tabarruk qabri joylashganligini eshitadi hamda bu avliyoning muqaddas xoki shaharni himoya qilayotganini anglab yetadi. Natijada, Sohibqiron shahar aholisini omon qoldirib, ularning mol-mulkiga tegmaslikka va'da beradi va avliyoning tabarruk xokini o'rnatilgan tartib-qoidalarga binoan Samarqandga olib keladi. [8, -B.38.]

Xalq orasida yana bir afsona mavjud bo'lib, Hazrat Doniyorning muqaddas xoki yahudiylar dini jamiyati vakillari tomonidan qadimgi Samarqandga olib kelishgan. O'sha vaqtda hududda ustuvor bo'lgan otashparastlik dini vakillari ruxsati bilan shahar chetida ibodatxona quriladi. Bu esa hozirgi kungacha yahudiy dini e'tiqodchilari tomonidan qadrlanib kelinadi.

Bu ziyoratgoh XX asr boshlarida Samarqand vohasida joylashgan Afrosiyob qo'g'onining sharqiy qismida joylashgan avliyo xo'ja Doniyor qabri ustiga qurilgan. Ziyoratgohning mashhur tomonlaridan yana biri, maqbara tepasida buloq mavjud bo'lib, aynan bu yerdan chiqadigan suvning shifobaxshligi va barcha dardlarga davo ekanligiga aholi ishonib kelishadi. Bu buloq bo'yicha ham turlicha rivoyatlar mavjuddir. Masalan, Abul Hakim Samarqandiyning "Qandiya" kitobida shunday ma'lumotlar keltiriladi: Samarqandda bir chashma borkim, jannat chashmalaridandur va Obi Rahmat arig'i yaqinidadir. Bu ma'lumot, buloq bo'yicha aholi orasidagi fikrlarni isbotidir. Demak, ushbu ziyoratgohni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq etish Samarqand voha ziyorat turizmini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hazrati Xizr masjidi. Bu masjid Samarqand shahrining eng mashhur va muqaddas ziyoratgohi sifatida e'tirof etiladi. Bu masjid Samarqand vohasidagi birinchi musulmon dini masjidi hisoblanadi. Bu masjid VIII asrda arablarning vohaga bostirib kelishi natijasida arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim buyrug'i bilan qurilgan. Bu masjidga Hazrati Hizr nomi beriladi. Bu ziyoratgoh mahalliy va chet el sayyohlari orasida juda mashhur bo'lib, u haqidagi afsona va rivoyatlarning o'zi ham bu masjidga e'tiborni oshiradi.

Mahalliy aholi orasidagi ba'zi rivoyatlarga ko'ra, Hazrati Hizr avliyo, sayohatchilar homiysi, suv resurslari va boylklari uchun mas'ul shaxsdir. Hazrati Hizrning ruhi yer va boshqa narsalar

yaratilishidan 300 yil oldin yaratilgan. Shuning uchun, xorijlik sayyohlar orasida **“tirik suvning afsonaviy egasi”** nomi bilan mashhur.

Xo'ja Ahror Valiy majmuasi. Ziyoratgoh Samarqand tumanining Ulug'bek qishlog'ida joylashgan maskan bo'lib, uning tarixi XV asrga borib taqaladi. Majmua madrasa, masjid va hovuz kompleksidan iborat bo'lib, Nodir Devonbegi (1630-1631) tomonidan qurdirilgan. Xo'ja Ahror (Xo'ja Ubaydulloh Ahror) islom dinida tasavvufda Naqshbandiya tariqatining davomchilaridan hisoblanadi.

Xo'ja Ahror Valiy asli Toshkent viloyatining Bog'iston qishlog'idan bo'lib, Temuriylar davrida Abu Said Mirzo iltimosiga ko'ra, Samarqandga keladi va shu yerda shogirdlari bilan birga faoliyat olib boradi. Bu haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida Xo'ja Ahrorga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: “Samarqand ahlikim, yigirma-yigirma besh yil Sulton Ahmad Mirzoning zamonida rafohiyat va farog'at bila o'tqarib edilar, aksar muomala hazrati Xoja jihatidan adl va shar' tariqi bila edi” [9, -B.79.]. Bundan ko'rinadiki, Xo'ja Ahrorning nafaqat raiyatda va davlat ishlarida ham ahamiyati ko'proq bo'lib, doimo jamoatga adolatli bo'lish kerakligi bo'yicha davlat rahbariga maslahatlar berib borgan.

Bugungi kunda Xo'ja Ahror Valiyning nomi va ahamiyati nafaqat Samarqand vohasida, balki, butun O'zbekistonda mashhurdir. Bunga esa, xalq orasida ulug' zotga tegishli turli rivoyatlar mavjudligi buning isbotidir. Xususan, ba'zi rivoyatlarga ko'ra, Xo'ja Ahror Valiyning sifatleri ko'p bo'lib, ulug' zot biror vaziyatni tahlil etish, mushohada yuritish va xulosalarini “tush ko'rdim” usulida bayon yetgan. Barcha voqea va karomatlar Valiyning “tushida ayon bo'lishi” natijasida ta'bir etilgan. Yana boshqa rivoyatga asoslansak, Xo'ja Ahrorning ulug' darajalari haqida shunday hikoya qilinadi: Islom dunyosida 356 nafar avliyodan faqatgina uch nafari “qutb ul-aqtob” darajasiga erishgan. Shulardan biri Xo'ja Ahror Valiy hisoblanadi.

Demakki, Xo'ja Ahror Valiy ziyoratgohi nafaqat tasavvuf tariqatchilarining, balki islomiy davlatlarning sayyohlarining ham e'tiborini o'ziga tortuvchi muqaddas maskanlardan biridir. Shu bilan birga buyuk tasavvufchi Mahdumi A'zam tomonidan Xo'ja Ahrorni o'ziga ma'naviy maslak, ustoz sifatida bilishi ham bu maskanning naqadar muqaddasligidan dalolatdir.

Maxdumi A'zam va G'avsul A'zam ziyorat maskanlari. Maxdumi A'zam ziyoratgohi (XVI – XIX asrlarga oid) Samarqand viloyatining Daxbed qishlog'ida joylashgan maskan hisoblanadi. Maxdumi A'zam (Sayyid Ahmad Kosoniy) asli Namanganlik mashhur shayx va so'fiylar vakilidir. Ulug' zotning ota-onalari Muhammad (s.a.v.) payg'ambar avlodlaridan bo'lib, bu haqida ko'plab tarixiy manbalar, qabr toshlari va tarixiy obidalarining peshtoqlarida koshiniy qilib bitilgan.

O'z davrida shayxni Shayboniy Jonibek Sulton Samarqandga taklif etgan va hozirgi Dahbet mavzesidan joy beradi. Manbalarga qaraganda, Sayyid Ahmad Kosoniy bu joyni obod qilib, dastlab o'n tup tol daraxti o'tqazadi. Shu bois, mazkur joy Dahbed (o'n tol) degan nom oladi. Sayyid Kosoniy keyinchalik bu joyda tasavvuf olamida mashhur “Dahbediya” yo'nalishiga asos soladi.

Mashhur tarixchi olim Abu Toxirxoja Samarqandiy «Jome' ul-Maqomat» asarida Mahdumi A'zamga shunday baho bergan: “Hazrat Mahdumi A'zam janoblarining maqomat, holat va karomatlari shundaykim, bu nodonning qalami uni tahrir va tahlil qilishga o'jizlik qiladi. U kishining maqomatlari haqida mashhur kitob bo'lib, unda ham u zotning holatlari qisqa yozilgan” [10, -B.56.].

Bu ulug' zotning Samarqand voha aholisi madaniy hayotida tutgan o'rnini o'rganar ekanmiz, islom olamida “A'zam” – mo'tabar, ulug' maqomiga yerishgan shaxslar sanoqli bo'lib, shulardan ikki nafari mazkur vohada yashaganliklarining o'zi Samarqandga bo'lgan e'tiborni yanada oshiradi.

Mahdumi A'zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rgangan olim E.Zoirovning yozishicha, “Tasavvuf va fiqhshunoslik ilmlari bobida uch buyuk zot “A'zam” (Ulug') unvonini olishgan. Bular: Imomi A'zam, G'avsul A'zam va Mahdumi A'zam” [11, -B.26.]. Mazkur ziyoratgoh Samarqand viloyatining Urgut tumani G'o's qishlog'ida joylashgan G'avsul A'zam qadamjosi bilan bevosita bog'liqdir.

G'avsul A'zam ziyoratgohi islom tasavvufida o'chmas iz qoldirgan buyuk zot Abdulqodir Giyloniy nomi bilan bog'liqdir. Giyloniy asli Eronning Gilon viloyatidan bo'lib, Giyloniy – “Giylonlik” tahallusini olgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Hazrati Giyloniyning shajarasi Muhammad (s.a.v.) payg'ambarga borib taqaladi. [12, -B.8.] Demak, aynan Samarqand vohasida joylashgan ikki A'zam shayxlari payg'ambar oilasiga aloqadordir.

Abdulqodir Giyloniyga islom dinida shayxlarning buyukligi bo'yicha yetti darajaga bo'linganligi, eng yuqori daraja: qutb va g'avs bo'lib, aynan shayx g'avs darjasiga yetgan. “G'avs” – fors tilida “qo'llab-quvvatlovchi”, “A'zam” – “ulug', ajoyib” degan ma'nolarni anglatadi. G'avsul

A'zamning islom dinida mashhurligi uning, tasavvuf dunyosidagi mashhur yo'nalish "Qodiriya" ta'limoti asoschisi ekanligi bilan bog'liq[13, -B.14.]/

Ta'kidlab o'tish joizki, G'avsul A'zamning asl maqbarasi Iroqning Bag'dod shahrida hisoblanib, Urgut tumanidagi maqbara ham ulug' zotga tegishli deb qaraladi. Mahalliy aholi orasidagi rivoyatlarga ko'ra, G'avsul A'zamning qudrati shunchalik kuchliki, bir vaqtning o'zida boshqa bir joyga uzlat qila olish kuchiga ega bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, bir kuni yosh bolali ona tog'lar orasida qiyinchilikda qolib, ulug' shayxdan madad so'raydi. G'avsul A'zamning aynan shu ona nolasiga javoban tog'lar orasida namoyon bo'lib, ona va bolaga yordam beradi. Shu jarayonda ulug' shayxning oyoq kiyimining bir poyi o'sha joyda tushib qoladi va o'sha joyda maqbara bunyod etiladi. Xuddi shunday karomat Mahdumi A'zam rivoyatida ham keltirilgan, ya'ni bunda ziyoratgohdagi 2 tup chinor daraxtining biri Erondan asir kishining nolasiga ko'ra, asir kishi bilan qo'shib, ziyoratgohga ko'chirib kelgan. Shu bois, hozirgacha Samarqand vohasida A'zam shayxlarining ziyoratgohlarining mavqeyi yuqori hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi. Ko'pgina mamlakatlar va aholi punktlarida turizm qiyin ahvolda bo'lgan iqtisodiyotni jonlantirish yoki qutqarish yo'li sifatida ko'riladi, ayniqsa hozirgi turizm prognozlari, yuqorida aytib o'tilganidek, yaqin kelajakda diniy turizm kuchayishini ko'rsatadi.

Ayniqsa, ziyorat turizmi Samarqand vohasi madaniyatini yanada rivojlantirish hamda uni keng targ'ib etishda muhim omil hisoblanadi. Butun islom dunyosiga o'zining diniy ilmlari, qoldirgan boy ma'naviy meroslari bilan nom qozongan mashhur shayxlar va ulamolarning maqbara va ziyoratgohlari Samarqand hududida joylashganligi ham voha madaniyatini keng o'rganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
2. Mirziyoev Sh. O'zbekistonda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish nutqidan. 2017 yil 4 oktabr. <https://oz.sputniknews-uz.com/20171004/6451356.html>
3. Мазин К.А. Паломничество и туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. №4. 2009. – С. 9.
4. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: существенные аспекты // Современные проблемы науки и образования. 2014. №6. С. 572-572.
5. Alimova D. Samarqand tarixi (qadimgi davrlardan bugungi kungacha) // D.Alimova, Yu.Buryakov, Sh.Raxmatullaev; Toshkent: «ART FLEX», 2009. – B. 3.
6. Руй Гонсалес де Клавиho. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканде в 1403-1406 гг. И.И.Средневский. «Имперская Академия наук», 1881. – С. 316.
7. Usmanov M.R. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida): geograf. fan. nom. ... dis. Toshkent: 2003. – B. 94.
8. Eshonqulov Z. Ziyorat odoblari / ma'sul muharrir: Muhammad Bobur Yo'ldosh. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – B. 38.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'zbekiston SSR FA, 1960. – B. 79.
10. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. –Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 56.
11. Zoirov E. Maxdumi Azamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari: Falsafa fan. nomz... diss. – Toshkent: O'zFA Falsafa va huquq instituti, 2007. – B. 26.
12. Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Sirrul asror.Maktubot. Tarjimon O.Jo'raboev. – Toshkent: Movarounnahr. 2005. – B. 8.
13. Yunusova G.S. Abdulqodir Giyloniy ma'naviy merosida inson mohiyatining falsafiy tahlili: Fals. fan. dokt. ... dis. Avtoref. – Samarqand, 2019. – B. 14.